

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 4 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 4

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 4



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-4>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабирова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурадов Мансур Бобомурадович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайылдаева Асель Кокоевна**  
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)  
**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдугани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам,  
профессор (США)  
**Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz) решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

# ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

## Пармонов Фарход Ярашевич

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич**  
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)  
**Алимухамедова Нодира Ядгаровна**  
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

## Камалова Хатира Сабыровна

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Ахмедова Феруза Медетовна**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

## Аликариева Аълохон Нуриддиновна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Зайтов Элёр Холмаматович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

## Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович

доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Махкамов Қодиржон Одилжонович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

## Сеитова Зухрагон Пиржановна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Доспанова Дилара Уракбаевна**  
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна**  
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

## Каримов Бобир Шаропович

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Якубов Ильдар Харрасович**  
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)  
**Абдухалилов Абдулло Абдухамитович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Рахимова Нигина</b> УЗБЕКИСТАН В ПОИСКАХ АНТИКОРРУПЦИОННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ: ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО, МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ, ОБЩЕСТВЕННОЕ МНЕНИЕ.....	5
<b>2. Alikariyev Nuriddin</b> INSON KAPITALIGA INVESTITSIYALARNING SAMARADORLIGI.....	14
<b>3. Убайдуллаева Раиса</b> СОЦИОКУЛЬТУРНЫЕ ТИПЫ МЫШЛЕНИЯ.....	24
<b>4. Farfiyev Bakhramdjan, Makhmudova Munisakhon</b> THE PHENOMENON OF THE NATIONAL MENTALITY AND ITS RELIGIOUS ELEMENT..	31
<b>5. Сабирова Умида</b> СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ШКОЛЬНОГО, ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО И ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	41
<b>6. O‘razaliev Gulshada</b> AYOLLARNING TA‘LIM OLISH JARAYONIDA GENDER YONDASHUVINING FALSAFIY VA IJTIMOYIY MOHIYATI.....	50
<b>7. Burxanov Xusniddin</b> MILLIY SAYTLAR TRANSFORMATSIYASIDA MILLIY PLATFORMALAR MASALASI....	56
<b>8. Заретдинова Несибели</b> СОЦИАЛЬНО-ДЕМОГРАФИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ МЫСЛИТЕЛЕЙ ВОСТОКА.....	64
<b>9. Akramov Xusan</b> HADISIY MEROS VA IJTIMOYIY ME‘YORLAR: NAZARIY HAMDA AMALIY TAHLIL.....	71
<b>10. Ibragimov Murodjon</b> JAMOATCHILIK BILAN ALOQA TEXNOLOGIYALARI (PR)NING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHINING SOTSIOMADANIY JIHATLARI.....	81
<b>11. Raximbayeva Oftobxon</b> MEHNAT FAOLIYATIDA KASBIY VA IJTIMOYIY KOMPETENTLIKNING KORRELYATSIYASI.....	90
<b>12. Shaumarova Nigora</b> IJTIMOIY KONSOLIDATSIYA KONSEPSIYASI: NAZARIYALAR, MEKANIZMLAR VA AMALIYOT.....	97

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

## ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES


**Акромов Хусан,**

О‘zbekiston Respublikasi

huquqni muhofaza qilish akademiyasi dotsenti, sots.f.f.d (PhD)

e-mail: x.f.akramov@proacademy.uz

### HADISIY MEROS VA IJTIMOY ME’YORLAR: NAZARIY HAMDA AMALIY TAHLIL

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17792944>

#### ANNOTATSIYA

Maqolada hadisiiy merosning ijtimoiy me’yorlar va sanksiyalarni shakllantirishdagi o’rni chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot sabab–oqibat metodologiyasi asosida olib borilib, Imom al-Buxoriy “Al-jome’ as-sahih” asaridagi hadislar asosida jamiyatda birdamlik, adolat va axloqiy qadriyatlarining mustahkamlanishi o’rganiladi. Ushbu maqolada me’yorlar va ularning turlari hamda ularning ijtimoiy kapital bilan aloqadorligi, madaniy kontekstdagi bog’liqligiga alohida urg’u berilgan. Shuningdek, E.Dyurkgeymning kollektiv ong nazariyasi, M.Veberning ijtimoiy harakat konsepsiyasi, T.Parsonsing ijtimoiy tizim nazariyasi va P.Burdyening ramziy kapital tushunchasi bilan hadislarining qiyosiy tahlili amalga oshiriladi. Natijada hadisiiy meros nafaqat diniy, balki sotsiologik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi kuch sifatida talqin qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** ijtimoiy me’yor; sanksiya; hadis; Imom al-Buxoriy; sotsiologiya; ijtimoiy birdamlik; ramziy kapital; adolat.

**Акромов Хусан,**

Доцент Правоохранительной академии Республики Узбекистан,

доктор философии по социологическим наукам (PhD)

e-mail: x.f.akramov@proacademy.uz

### ХАДИСИЙНОЕ НАСЛЕДИЕ И СОЦИАЛЬНЫЕ НОРМЫ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ И ПРАКТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

#### АННОТАЦИЯ

В статье подробно анализируется роль хадисийного наследия в формировании социальных норм и санкций. Исследование проведено на основе методологии «причина – следствие» и основано на хадисах Имама аль-Бухари из сборника «Аль-Джоме’ ас-сахих», в которых изучается укрепление общественной солидарности, справедливости и нравственных ценностей. В данной статье особое внимание уделяется нормам, их видам, а также их взаимосвязи с социальным капиталом и культурным контекстом. Кроме того, проводится сравнительный анализ хадисов с теорией коллективного сознания Э.Дюркгейма, концепцией социального действия М.Вебера, теорией социальной системы Т.Парсонса и понятием символического капитала П.Бурдьё. В результате хадисийное наследие трактуется не только как религиозный, но и как социологический фактор, обеспечивающий социальную стабильность.

**Ключевые слова:** социальная норма; санкция; хадис; Имам аль-Бухари; социология; социальная солидарность; символический капитал; справедливость.

**Akramov Khusan,**

Associate Professor, Academy of Law Enforcement  
of the Republic of Uzbekistan, PhD in Sociology  
e-mail: x.f.akramov@proacademy.uz

## HADITH HERITAGE AND SOCIAL NORMS: THEORETICAL AND PRACTICAL ANALYSIS

### ABSTRACT

The article provides an in-depth analysis of the role of hadith heritage in shaping social norms and sanctions. The study is conducted on the basis of the cause–effect methodology and draws upon the hadiths of Imam al-Bukhari from *Al-Jāmi‘ al-Sahīh*, focusing on the consolidation of social solidarity, justice, and moral values. This article places special emphasis on social norms, their types, and their relationship with social capital and the cultural context. Furthermore, a comparative analysis is made between the hadiths and É. Durkheim’s theory of collective consciousness, M. Weber’s concept of social action, T. Parsons’s theory of the social system, and P. Bourdieu’s notion of symbolic capital. As a result, hadith heritage is interpreted not only as a religious source but also as a sociological factor that ensures social stability.

**Keywords:** social norm; sanction; hadith; Imam al-Bukhari; sociology; social solidarity; symbolic capital; justice.

### KIRISH

Har qanday jamiyat o‘z a‘zolarining turli ijtimoiy vaziyatlarda qanday harakat qilishi lozimligini belgilovchi qoidalar va tamoyillar tizimiga ega. Ushbu qoidalar ijtimoiy me‘yorlar deb yuritiladi va ular shaxslar hamda ijtimoiy guruhlar xulq-atvorining shakllanishida markaziy rol o‘ynaydi. Ijtimoiy me‘yorlar jamiyatda tartib va barqarorlikni ta‘minlash, hamda ijtimoiy munosabatlarni muvofiqlashtirish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy me‘yorlar ikki asosiy shaklda mavjud bo‘ladi:

1) Formal me‘yorlar – qonunlar, rasmiy qoidalar, institutlashtirilgan nizomlar shaklida ifodalanadi. 2) Noformal me‘yorlar – urf-odatlar, axloqiy qadriyatlar, an’anaviy xulq-atvor shakllari bo‘lib, ko‘pincha tajriba va kuzatish orqali o‘zlashtiriladi. Ijtimoiy me‘yorlarning xarakteri, mazmuni va qo‘llanish shakllari madaniyatlar, mintaqalar va tarixiy davrlar bo‘yicha farq qilishi mumkin. Ular ba‘zida yozma shaklda mavjud bo‘lgan qonuniy normalar sifatida ochiq ifodalanadi, ba‘zida esa jamiyat a‘zolari tomonidan norasmiy tarzda, lekin umumiy ijtimoiy tajriba orqali o‘zlashtiriladi.

Ijtimoiy me‘yorlar ijtimoiy kapital shakllanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy kapital, sotsiologik nuqtai nazardan, shaxslar va guruhlar o‘rtasidagi ishonch, o‘zaro yordam, hamkorlik va tarmoq aloqalari orqali yuzaga keladigan ijtimoiy boylikdir. Bu kapitalning samaradorligi ko‘p jihatdan ijtimoiy me‘yorlarning mavjudligi, barqarorligi va jamiyat a‘zolari tomonidan qabul qilinish darajasiga bog‘liq. Shunday qilib, ijtimoiy me‘yorlar nafaqat ijtimoiy tartib va intizomni ta‘minlaydi, balki ijtimoiy tarmoqlarni mustahkamlash, o‘zaro ishonchni oshirish va kooperatsiyani rivojlantirish orqali ijtimoiy kapitalni shakllantiradi. Bu esa o‘z navbatida, jamiyatda ijtimoiy birdamlik, taraqqiyot va barqarorlikni kuchaytiruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy me‘yorlar – bu jamiyat yoki madaniyat doirasida xatti-harakatlarni tartibga soluvchi yozilmagan qoidalar majmuasidir. Ushbu me‘yorlar ochiq-oydin shaklda – qonunlar va rasmiy qoidalar sifatida mavjud bo‘lishi mumkin, yoki yashirin tarzda – tajriba, kuzatish hamda ijtimoiylashuv jarayonida o‘zlashtiriladi [1]. Ijtimoiy me‘yorlarga amal qilish odatda jamiyatdagi ijtimoiy bosim orqali ta‘minlanadi. Bunday bosim o‘zini salbiy baholash, ijtimoiy rad etish (ostrakizm) yoki bevosita jazolash – masalan, jarimalar yoki qamoq jazosi orqali namoyon bo‘ladi [2].

## METODOLOGIYA

Sotsiologik adabiyotlarda ijtimoiy me'yorlar odatda quyidagi uch toifaga bo'linadi: 1) Odatlar (folkways) – bu kundalik hayotdagi xulq-atvorni tartibga soluvchi norasmiy me'yorlardir. Masalan, odob-axloq, salomlashish, navbatga turish kabi odatlar. 2) Axloqiy me'yorlar (mores) – bu jamiyatda axloqiy jihatdan to'g'ri yoki noto'g'ri deb baholanuvchi xatti-harakatlarni belgilovchi kuchliroq me'yorlardir. Masalan, halollik, vijdonlilik kabi tushunchalar [3]. 3) Taqiqlar (tabu) – bu eng keskin ijtimoiy me'yorlar bo'lib, odatda kuchli ijtimoiy norozilik yoki jazolash bilan birga yuradi. Masalan, inestet, odamxo'rlik kabi holatlar ko'pchilik jamiyatlarda qat'iy man etilgan [4].

Ijtimoiy me'yorlar jamiyatda xatti-harakatlarni yo'naltirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ular: 1) Ijtimoiy tartib va barqarorlikni ta'minlaydi; 2) Shaxslar o'rtasida umumiy qadriyatlar va kutishlarni shakllantiradi; 3) Ijtimoiy nazorat vositasi sifatida xizmat qiladi, chunki odamlar odatda jazodan yoki rad etilishdan qochish uchun me'yorlarga mos ravishda harakat qilishga intilishadi [5].

Ijtimoiy me'yorlar – bu ijtimoiy kapitalning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Ijtimoiy kapital – bu shaxslar va guruhlar o'zaro tarmoqlangan aloqalari, ishonch va hamkorlik orqali orttiradigan ijtimoiy boylikdir [6].

Ijtimoiy me'yorlar: 1) O'zaro ishonchni mustahkamlaydi; 2) O'zaro yordam va reciprocitetni (Reciprocitet (lot. reciprocus – o'zaro, qaytarilgan) – ikki yoki undan ortiq tomonlar o'rtasida o'zaro almashinuv yoki javob reaksiyasini anglatadi. Sotsiologiyada: Reciprocitet — odamlar yoki guruhlar o'rtasida o'zaro ijtimoiy munosabatlarda "berish–qaytarish" printsipini bildiradi. Ya'ni, bir kishi yaxshilik qilsa, ikkinchi kishi unga javoban ayni yoki o'xshash yaxshilik qiladi. Bu ijtimoiy norma sifatida ishlaydi va ijtimoiy kapitalni mustahkamlaydi.) rag'batlantiradi [7]; 3) Hamkorlik va ijtimoiy birlashishni rivojlantiradi. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy kapitalning kengayishiga va jamiyatda ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lishiga zamin yaratadi. Ijtimoiy me'yorlarga quyidagi kundalik hayotga oid misollarni keltirish mumkin: 1) Kattalarga hurmat ko'rsatish; 2) Belgilangan vaqtda uchrashuvga yetib kelish; 3) Har xil holatlar uchun mos kiyinish qoidalariga rioya qilish. Bu me'yorlar madaniyat va mintaqalar bo'yicha farqlanishi mumkin. Bir jamiyatda maqbul hisoblangan xatti-harakat boshqasida noo'rin, deb qaralishi mumkin [8].

Ijtimoiy me'yorlar har qanday jamiyatning ajralmas qismi bo'lib, inson xulq-atvorini shakllantirish, ijtimoiy nazoratni amalga oshirish hamda ijtimoiy kapitalni kuchaytirishda muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy me'yorlarni anglash va ularga hurmat bilan yondashish orqali shaxslar va guruhlar o'zaro mustahkam aloqalar o'rnatib, yanada uyg'un, birdam va taraqqiy etuvchi jamiyatni barpo etishga xizmat qiladilar. Ijtimoiy me'yorlar jamiyatda shaxslarning xatti-harakatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular – odatda yozilmagan, biroq ijtimoiy hayotni tartibga soluvchi va individlar qanday harakat qilishi kerakligini belgilab beruvchi qoidalar majmuasidir. Ushbu me'yorlar ijtimoiylashuv (sotsializatsiya) orqali o'zlashtiriladi va ijtimoiy sanksiyalar orqali mustahkamlanadi [1].

Ijtimoiy me'yorlar jamiyatdagi madaniyat, din va an'anaviy qadriyatlarga qarab farqlanishi mumkin. Shuningdek, ular ijtimoiy kapitalni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, shaxslar va guruhlar o'rtasidagi hamkorlik, ishonch va o'zaro aloqalardan hosil bo'ladigan ijtimoiy boylikni ifodalaydi [6]. Ijtimoiy me'yorlar ijobiy tomondan: 1) hamkorlikni rag'batlantiradi; 2) o'zaro ishonchni mustahkamlaydi; 3) ijtimoiy birlikni kuchaytiradi. Biroq ular salbiy oqibatlariga ham olib kelishi mumkin, masalan: 1) jamiyatda konformizmni (ko'pchilikka moslashishni); 2) kamsitishni yoki rad etishni (diskriminatsiya); 3) ijtimoiy ajratishni (eksklyuziya) kuchaytirishi mumkin [8].

Ijtimoiy me'yorlar odatda odamlar orasida hamkorlik va o'zaro ishonchni rivojlantiradi. Jamiyat a'zolari me'yorlarga amal qilgan taqdirda, ular bir-biriga ko'proq ishonishadi va o'zaro yordam ko'rsatish ehtimoli ortadi. Masalan, yordamga muhtoj kishilarga yordam berishni targ'ib qiluvchi me'yorlar jamiyatda hamjihatlik va ijtimoiy birdamlikni shakllantiradi [9]. Ijtimoiy me'yorlar ayrim hollarda konformizmga – ya'ni jamiyatdagi ko'pchilikning fikriga yoki xulqiga ko'r-ko'rona ergashishga sabab bo'ladi. Bunday holatlarda shaxslar guruh ichidagi konsensusga asoslangan qarorlarni qabul qilishadi, bu esa muqobil nuqtai nazarlarni inkor etishga olib kelishi

mumkin. Natijada, boshqacha fikrda yoki odatda farqli bo'lgan shaxslar rad etiladi yoki kamsitiladi [10].

Ba'zan ijtimoiy me'yorlar ayrim kishilar yoki guruhlarini jamiyatdan chetlashtirish (eksklyuziyaga - bu lotincha *excludere* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "chiqarib tashlash", "chetda qoldirish", "tashqariga chiqarish" degan ma'noni anglatadi. Ijtimoiy fanlarda eksklyuziya: Ijtimoiy eksklyuziya – bu biror shaxs yoki guruhning \*\*jamiyatdagi muhim resurslar (ta'lim, sog'liqni saqlash, ish, siyosiy ishtirok, ijtimoiy aloqalar)\*\*ga kirishdan cheklanishi yoki chetda qolishi jarayonidir. Shaxs yoki guruhning jamiyatning ijtimoiy hayotidan, aloqalaridan chetlatilishi.) [11] olib keladi. Masalan, irq, jins yoki jinsiy orientatsiyaga asoslangan kamsituvchi me'yorlar ijtimoiy chetlab qo'yish va tengsizlikni yuzaga keltiradi. Bu esa ijtimoiy kapitalni pasaytiradi va jamiyatdagi ishonch muhitiga salbiy ta'sir qiladi [12]. Ijtimoiy me'yorlar dinamik xarakterga ega bo'lib, jamiyat taraqqiyoti, yangi muammolar va imkoniyatlarga moslashish jarayonida o'zgarib boradi. Masalan, gender rollariga oid me'yorlar so'nggi o'n yilliklarda sezilarli o'zgarishga uchradi – ayollarning mehnat bozoridagi faolligi va rahbarlik lavozimlariga intilishi bunga misol bo'la oladi [13]. Ijtimoiy me'yorlar ko'pincha ijtimoiy institutlar – maktablar, diniy tashkilotlar, davlat muassasalari orqali shakllantiriladi. Bu institutlar muayyan qadriyatlar va xulq-atvor standartlarini ilgari surish orqali ijtimoiy me'yorlarni barpo etadi. Masalan, maktablarda yaxshi xulq va akademik yutuqni targ'ib qiluvchi me'yorlar bolalarning jamiyatdagi ijtimoiylashuvini belgilaydi [14].

### ASOSIY QISM

Ijtimoiy me'yorlar jamiyatdagi ijtimoiy kapitalni shakllantirishda hal qiluvchi o'ringa ega. Ular bir tomondan ishonch va hamkorlikni rivojlantirsa, boshqa tomondan konformizm, ajratish va kamsitish kabi salbiy oqibatlariga ham sabab bo'lishi mumkin. Shunday ekan, ijtimoiy me'yorlarning ijobiy va salbiy jihatlarni tushunish, ularni ongli tarzda boshqarish va muvozanatga keltirish – ijtimoiy uyg'unlik va barqaror taraqqiyot sari muhim qadamdir.

Ijtimoiy kapital – bu jamiyatdagi shaxslar va guruhlar o'rtasidagi hamkorlik, o'zaro ishonch va ijtimoiy tarmoqlarning uyg'unlashuvi orqali shakllanadigan resurslar majmuasidir. U ko'pincha "jamiyatni bir butun saqlab turuvchi elim" (*glue*) sifatida tasvirlanadi va iqtisodiy o'sish, sog'liqni saqlash, farovonlik kabi ko'plab ijtimoiy ko'rsatkichlarga kuchli ta'sir ko'rsatadi [15]. Ijtimoiy kapitalni to'g'ri anglash, ijtimoiy me'yorlarni shakllantirish va ularni barqarorlashtirishda, jamiyat ichida ijobiy munosabatlar muhitini yaratishda asosiy omil hisoblanadi. Ijtimoiy kapital ko'pincha shaxslar ijtimoiy tarmoqlari orqali kirish imkoniga ega bo'lgan resurslar bilan aniqlanadi. Bular quyidagilar bo'lishi mumkin: 1) Axborot (masalan, ish imkoniyatlari haqida ma'lumot); 2) Ijtimoiy yordam (emotsional yoki moddiy qo'llab-quvvatlash); 3) Moliyaviy vositalar (qarz, yordam, investitsiyalar) [9].

Ijtimoiy tarmoqlar orqali shaxslar u yoki bu holatda boshqa resurslarga erishish imkoniga ega bo'ladi, ayniqsa ular o'zlari ega bo'lmagan imkoniyatlarga. Ijtimoiy kapital ko'pincha mavjud bo'lgan umumiy ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlar asosida shakllanadi. Shaxslar o'zaro qadriyatlar va kutishlarni baham ko'rgan holatdagina ular o'zaro ishonch asosida ko'proq hamkorlik qilishadi va ijtimoiy manfaatli faoliyatlarda ishtirok etishadi [16]. Masalan, ekologik qadriyatlar bo'yicha umumiy ijtimoiy me'yor mavjud bo'lgan mahallalarda aholining daraxt ekish, chiqindilarni ajratib tashlash kabi faoliyatlarda birgalikda ishtirok etishi ehtimoli ortadi.

Ijtimoiy kapitalni shakllantirish va mustahkamlash quyidagi faoliyatlar orqali amalga oshiriladi: 1) Mahalliy jamoat tashkilotlarida ishtirok etish; 2) Ko'ngillilik (*volontyorlik*) faoliyati; 3) Norasmiy muloqot va do'stona aloqalarni rivojlantirish [8]. Bu kabi faoliyatlar insonlar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalarni mustahkamlaydi va o'zaro ishonchni oshiradi. Natijada, ijtimoiy kapital jamiyatda kengroq tarqaladi. Biroq, ijtimoiy kapital har doim mustahkam emas. U quyidagi holatlarda yemirilishi yoki zaiflashishi mumkin: 1) Ijtimoiy tengsizlik kuchayganda; 2) Ishonchsizlik va befarqlik jamiyatda kengaysa; 3) Ijtimoiy segmentatsiya – ya'ni jamiyat ichida qatlamlararo aloqalar uzilganda [17]. Bunday hollarda tarmoqlar parchalanadi, odamlar bir-biridan uzoqlashadi va natijada ijtimoiy yakkalanish va farovonlikning pasayishi yuzaga keladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, umumiy me'yor va qadriyatlar ijtimoiy kapital asosidir. Masalan, bir jamoada atrof-muhitga g'amxo'rlik qilish qadriyat sifatida e'tirof etilgan bo'lsa, odamlar bir-birini

qo'llab-quvvatlab, daraxt ekish, chiqindilarni saralab tashlash kabi faoliyatlarda birgalikda ishtirok etishadi. Bu umumiylik hissi va ijtimoiy birdamlikni shakllantiradi [18]. Aksincha, ishonch yo'qolgan, qadriyatlar bo'yicha birlashmagan jamoalarda hamkorlik va koordinatsiya sust bo'ladi, ijtimoiy kapital pasayadi. Ijtimoiy kapitalni to'g'ri anglash – jamiyatni sog'lom rivojlantirish, ijtimoiy me'yorlarni shakllantirish va ijtimoiy birdamlikni ta'minlashda muhim omildir. Umumiy qadriyatlar, ijtimoiy ishonch, hamkorlik va tarmoqlanish ijtimoiy kapitalning asosi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu kapitalni rivojlantirish orqali jamiyatda: 1) innovatsion rivojlanish; 2) ijtimoiy barqarorlik; 3) fuqarolik ishtiroki; 4) umumiy farovonlik ortadi.

Ijtimoiy me'yorlar – bu jamiyatdagi o'zaro aloqalarni tartibga soluvchi yozilmagan qoidalar majmuasidir. Ular jamiyatni bir butun saqlab turuvchi "ijtimoiy elim" sifatida xizmat qiladi, shuningdek, shaxsiy xatti-harakatlarga ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy kapital esa shaxslar va guruhlarining ijtimoiy tarmoqlari orqali axborot, ishonch va ijtimoiy yordam kabi resurslarga ega bo'lishidir [9]. Bu ikki tushuncha – ijtimoiy me'yorlar va ijtimoiy kapital – o'zaro murakkab, ko'p qirrali va dinamik aloqaga ega. Ijtimoiy me'yorlar ijtimoiy kapitalni kuchaytirishi mumkin, biroq ba'zida unga to'sqinlik qilishi ham ehtimoldan xoli emas. Me'yorlarga amal qiluvchi shaxslar jamiyatda ishonchli va barqaror shaxs sifatida qabul qilinadi. Bu esa ularning boshqa odamlar bilan ijtimoiy aloqalarni rivojlantirishi, o'zaro ishonch va o'zaro yordamga asoslangan tarmoqlar yaratishiga olib keladi [6]. Umumiy qadriyatlar va kutishlarga amal qilinayotgan jamiyatlarda ijtimoiy kapital yuqori bo'ladi, chunki me'yorlar jamiyat a'zolari o'rtasida barqarorlik, o'zaro ishonch va birdamlikni ta'minlaydi [17].

Biroq, me'yorlar har doim ham inklyuziv - Inklyuziv (lotincha *includere* – "ichiga olmoq") — bu kimnidir yoki nimanidir o'z ichiga qamrab olish, istisnosiz qabul qilish, ajratmaslik degan ma'noni bildiradi. Har kim jamiyatda o'zini erkin, teng huquqli his qiladigan muhit yaratish. (inklyuziv – inkor etmaydigan) emas [19]. Ba'zida ular normadan chetga chiqadigan shaxslar uchun ijtimoiy to'siqlar yaratadi. Masalan, me'yorlar jamiyatdagi dominant guruhlar tomonidan belgilansa, u holda bu me'yorlarga mos kelmaydigan shaxslar yoki guruhlar ijtimoiy kapitaldan foydalana olmaydi [18]. Bunday holatlarda: 1) kamsitish va ijtimoiy chetlatish sodir bo'ladi; 2) me'yorlarga mos kelmaydiganlar jamiyatdan ajralib qoladi; 3) bu esa ularning resurslarga kirish imkoniyatini pasaytiradi. Ijtimoiy me'yorlar ko'pincha jamiyatdagi mavjud kuch tuzilmalari (maktab, davlat, media) tomonidan mustahkamlanadi. Hukmron guruhlar ba'zida ijtimoiy me'yorlardan mavqeini saqlash va boshqalarni ijtimoiy kapitaldan chetlatish vositasi sifatida foydalanishi mumkin [20]. Masalan, irq, til, jins yoki diniy e'tiqodga asoslangan me'yorlar orqali jamiyatda resurslarga ega bo'lishda ixtiyoriy to'siqlar paydo bo'ladi. Bu ijtimoiy kapitalning adolatli taqsimlanmasligiga olib keladi.

Shunga qaramay, ijtimoiy me'yorlar ijtimoiy o'zgarish vositasi sifatida ham xizmat qilishi mumkin. Jumladan: bag'rikenglik, inklyuzivlik, xilma-xillikni qadrllovchi ijtimoiy me'yorlar jamiyatdagi barcha guruhlar uchun resurslar kirishiga imkon beradi, bu esa ijtimoiy kapitalning demokratik va adolatli taqsimlanishiga zamin yaratadi [21]. Masalan, jamiyatda nogironlar, ayollar, etnik ozchiliklar huquqlarini tan oluvchi va qo'llab-quvvatlovchi me'yorlar mavjud bo'lsa, u holda bu guruhlar ham ijtimoiy tarmoqlar orqali ijtimoiy kapital yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ijtimoiy me'yorlar va ijtimoiy kapital o'rtasidagi bog'liqlik murakkab va ko'p qirrali. Bir tomondan, ijtimoiy me'yorlar: 1) ishonchni mustahkamlash; 2) umumiy qadriyatlarni shakllantirish; 3) ijtimoiy tarmoqlarni rivojlantirish orqali ijtimoiy kapitalni kuchaytiradi. Boshqa tomondan, ular: 1) normaga mos kelmaydiganlarni chetlab qo'yish; 2) tengsizlikni mustahkamlash orqali ijtimoiy kapitalning yemirilishiga ham olib kelishi mumkin. Shu bois, ijtimoiy me'yorlar mazmunini inklyuziv qadriyatlar asosida shakllantirish ijtimoiy taraqqiyot uchun muhim omildir.

Ijtimoiy me'yorlar – bu jamiyatdagi shaxslar xatti-harakatini tartibga soluvchi yozilmagan qoidalar majmuasidir. Ular odamlarning boshqalar bilan o'zaro munosabatlarini belgilaydi, ijtimoiy maqbul yoki nomaqbul harakatlar to'g'risida tasavvur hosil qiladi hamda jamiyatdagi qadriyatlar tizimini shakllantiradi. Ijtimoiy me'yorlarning xulq-atvoriga ta'siri masalasi sotsiologiya, psixologiya va antropologiya fanlarida keng o'rganilgan [22]. Mazkur bo'limda ijtimoiy me'yorlarning inson xulq-atvoriga qanday ta'sir ko'rsatishi, bu ta'sirning turli yo'nalishlari va salohiyati ilmiy nuqtai

nazardan tahlil qilinadi. Ijtimoiy me'yorlar odamlarni konformistik xulqqa – ya'ni jamiyatning kutishlariga moslashishga undaydi. Shaxslar ko'pincha jamoaga mos bo'lish, rad etilishdan qochish maqsadida ijtimoiy me'yorlarga rioya qiladilar [10]. Misol uchun, vaqtga qat'iy rioya qilish qadriyat hisoblangan ish muhitida xodimlar mehnat jamoasida o'z o'rnini yo'qotmaslik uchun belgilangan vaqtga amal qiladilar. Bu normativ konformizm deb yuritiladi va ijtimoiy me'yorlarning xulq-atvorni shakllantirishdagi markaziy rolini aks ettiradi [23].

Ijtimoiy me'yorlar jamiyatda prosotsial (Prosotsial – bu boshqalarga yordam berish, hamdardlik, hamkorlik va ijobiy ijtimoiy xatti-harakatlarni ifodalaydigan tushunchadir. Jamiyatda ijobiy ijtimoiy norma sifatida, ijtimoiy birdamlik va ijtimoiy kapitalni mustahkamlovchi harakatlar.) xulq-atvor [24], ya'ni boshqalarga foyda keltiruvchi harakatlarni rag'batlantiradi. Bunday xatti-harakatlarga yordam berish, ulashish, hamkorlik qilish kiradi [25]. Masalan, ko'ngillilik (volontyorlik) qadriyat sifatida baholanadigan jamiyatlarda odamlar ko'proq ixtiyoriy faoliyatlarda ishtirok etadi, bu esa ijtimoiy kapitalning oshishiga olib keladi. Shu tariqa, ijtimoiy me'yorlar ishonch va birdamlik muhitini kuchaytiradi. Boshqa tomondan, ijtimoiy me'yorlar ayrim hollarda deviant xatti-harakatlar – ya'ni jamiyatda maqbul hisoblanmaydigan yoki qoidalarni buzuvchi harakatlarni ham yuzaga keltirishi mumkin [26]. Agar ma'lum bir guruhda zararli xatti-harakatlar (masalan, giyohvand moddalarni iste'mol qilish) me'yor sifatida qabul qilingan bo'lsa, shaxslar jamoadan chetda qolmaslik uchun deviant harakatlarni bajarishga majbur bo'lishadi. Bunday holat ijtimoiy bosim orqali og'ishgan xulqni shakllantiruvchi omil sifatida baholanadi.

Ijtimoiy me'yorlar madaniy kontekstga qarab o'zgaradi. Bir madaniyatda maqbul bo'lgan xatti-harakat boshqasida nomaqbul yoki deviant sifatida baholanishi mumkin [27]. Masalan, ba'zi jamiyatlarda uyga kirishda oyoq kiyimini yechish odatiy holat bo'lsa, boshqalarda bu umuman talab qilinmaydi. Shuning uchun, turli madaniyatlar o'rtasida ijtimoiy me'yorlarni anglash va hurmat qilish, o'zaro tushunish va inklyuziv jamiyat barpo etishda muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy me'yorlar odamlarning qaror qabul qilish uslubi, munosabatlari va kundalik xatti-harakatlariga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ular: konformizm orqali me'yorga mos harakatlarni shakllantiradi, prosotsial harakatlarni targ'ib qiladi, ba'zi holatlarda esa deviant harakatlar uchun zamin yaratadi, madaniy farqlilikni hisobga olishni talab qiladi. Ijtimoiy me'yorlar orqali hamkorlik, ishonch va umumiy qadriyatlarni ilgari surish jamiyatda barqaror ijtimoiy kapitalni shakllantirish va mustahkamlash imkonini beradi.

Ijtimoiy kapital – bu shaxslar va guruhlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlardan hosil bo'ladigan resurslar majmui bo'lib, axborot almashinuvi, o'zaro yordam, ishonch va kooperatsiyani o'z ichiga oladi. U sotsiologik nuqtai nazardan jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining muhim ko'rsatkichlaridan biridir [6]. Ijtimoiy kapital darajasi ko'p jihatdan jamiyatdagi ijtimoiy me'yorlar xarakteri bilan bog'liq. Ayniqsa, ijobiy ijtimoiy me'yorlar, ya'ni hamkorlik, bag'rikenglik, adolat, halollik va inklyuzivlikni targ'ib qiluvchi normalar ijtimoiy kapitalning shakllanishi va o'sishiga sezilarli darajada ta'sir qiladi [17]. Ijobiy me'yorlar shaxslar o'rtasida yordam berish, ko'ngillilik, hamkorlik qilish kabi prosotsial xatti-harakatlarni rag'batlantiradi. Bunday me'yorlar jamiyat a'zolari orasida qanday harakatlar kutilyotgani haqida aniq signal beradi [28]. Masalan, agar jamiyatda volontyorlik qadrlansa, shaxslar ixtiyoriy faoliyatlarda faol qatnashadi, bu esa ijtimoiy tarmoqni kengaytiradi va ijtimoiy kapitalning shakllanishiga xizmat qiladi.

Ishonch – ijtimoiy kapitalning asosiy tarkibiy qismi. Ijobiy ijtimoiy me'yorlar halollik, adolat, hurmat kabi qadriyatlarni targ'ib qilish orqali jamiyatda o'zaro ishonch muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi [9]. Shaxslar o'zaro ishonchga asoslangan aloqalarni rivojlantirganda, bu tarmoqning chidamliligi va ishonchliligi ortadi. Natijada, bu jamiyat ichida ijtimoiy birlashuv va kooperatsiyani kuchaytiradi. Ijobiy me'yorlar jamoa bo'lib ishlash, bir-birini qo'llab-quvvatlash kabi hamkorlik madaniyatini rivojlantiradi. Shaxslar umumiy maqsadlar sari birgalikda harakat qilar ekan, ijtimoiy resurslarga kirish imkoniyatlari ham ortadi [21]. Masalan, ta'lim sohasida o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida hamkorlik me'yorlari o'rnatilgan bo'lsa, bu nafaqat individual muvaffaqiyat, balki umumiy ijtimoiy kapitalni oshirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy me'yorlarning ijobiyligi faqat ijobiy harakatlarni emas, balki barcha ijtimoiy guruhlarning jamiyatga to'liq qo'shilishini (inklyuziya) ham rag'batlantiradi. Bu xilma-xillikni

qadrlash, bag'rikenglik, tenglik kabi qadriyatlar orqali amalga oshiriladi [20]. Inklyuziv ijtimoiy me'yorlar mavjud bo'lgan jamiyatlarda o'zini qadrlangan va hurmat qilingan deb hisoblovchi shaxslar ijtimoiy aloqalarda faolroq bo'ladi, bu esa ijtimoiy kapital hajmini ko'paytiradi. Ijobiy ijtimoiy me'yorlar jamiyatdagi ijtimoiy kapitalni kuchaytirishda muhim o'rin tutadi. Ular: prosotsial harakatlarni rag'batlantiradi, ishonch muhitini shakllantiradi, kooperatsiyani mustahkamlaydi, inklyuzivlik orqali ijtimoiy tarmoqlarni kengaytiradi. Shuning uchun, siyosiy, madaniy va ta'limiy institutlar ijobiy ijtimoiy me'yorlarni shakllantirish va qo'llab-quvvatlash orqali barqaror, adolatli va inklyuziv jamiyatni rivojlantirish yo'lida xizmat qilishlari lozim.

Hadislar islom huquqi va axloqiy tamoyillarining asosiy manbalaridan biri bo'lib, shariat qoidalarini shakllantirishda Qur'ondan keyingi eng muhim manba hisoblanadi. Hadislar faqat diniy ta'limotlarni emas, balki jamiyat hayotini tartibga soluvchi ijtimoiy me'yor va sanksiyalarni belgilovchi mezon sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ma'ruzada hadislar jamiyatdagi ijtimoiy me'yor va sanksiyalarni shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Hadislar nafaqat ibodat qoidalarini, balki shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy adolat, iqtisodiy faoliyat, oilaviy hayot, axloqiy tamoyillar va huquqiy me'yorlarni ham belgilaydi. Hadislar ahamiyati shundaki, ular jamiyatni barqaror ushlab turuvchi odob-axloq qoidalari, me'yorlar va qonunlarni shakllantiradi. Masalan, Abu Hurayradan rivoyat qilingan hadislar Rasululloh (s.a.v.) shaxsiy huquqlar, halollik va adolat masalalariga alohida urg'u berganlari ko'rsatiladi [29] (Sahih al-Buxoriy, 8-jild, 14-bet).

Hadislar asosida rivojlangan ijtimoiy me'yorlar shaxsiy va jamoaviy hayotda muhim o'rin tutadi. Quyidagi me'yorlar hadislar asosida shakllangan: Halollik va halol daromad: Rasululloh (s.a.v.) harom yo'l bilan topilgan boylikdan saqlanishni targ'ib qilganlar [30] (Sahih Muslim, 5-jild, 132-bet). Oila va nikoh qoidalari: Hadislar oilaviy munosabatlarning asosiy tamoyillarini belgilaydi. Misol uchun, "Eng yaxshi odam oilasiga yaxshi bo'lgan kishidir" degan hadis [31] (Abu Dovud, 2-jild, 255-bet). Odob-axloq me'yorlari: Jamiyatdagi hurmat, odob va inson huquqlarini himoya qilish hadislar orqali mustahkamlangan.

Hadislar jamiyatda tartib-intizomni saqlash uchun muayyan sanksiyalar tizimini ham ta'minlaydi. Ushbu sanksiyalar quyidagi shakllarga bo'linadi: Axloqiy sanksiyalar: Rasululloh (s.a.v.) ijtimoiy me'yorlarni buzgan shaxslarni odob bilan tanbeh berish yoki jamoatchilik oldida tanqid qilish orqali tarbiya berganlar [29] (Sahih al-Buxoriy, 3-jild, 78-bet). Huquqiy sanksiyalar: Islom huquqida jazo choralari ko'p hollarda hadislar asosida belgilanadi. Masalan, o'g'rilik uchun belgilangan sanksiya haqida hadislar mavjud [30] (Sahih Muslim, 4-jild, 210-bet). Mukofotlash: Hadislar jamiyatga foydali bo'lgan ishlarga rag'batlantirishga oid ko'plab misollar keltirilgan. Masalan, ilm o'rganish va boshqalarga o'rgatish eng ulug' savoblardan biri ekanligi haqida hadislar bor [32] (Imom Termiziy, 1-jild, 45-bet).

Hadislar jamiyat hayotida tartib o'rnatish, ijtimoiy me'yorlarni belgilash va sanksiyalarni joriy etish jarayonida muhim manba hisoblanadi. Ular nafaqat diniy qoidalar, balki huquqiy va axloqiy normalarni ham belgilaydi. Hadislar asosida shakllangan me'yor va sanksiyalar jamiyat barqarorligini ta'minlash va adolatni qaror toptirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois, hadislar chuqur o'rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish zamonaviy jamiyat uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Imom al-Buxoriy tomonidan jamlangan "Al-jome' as-sahih" hadislar to'plami nafaqat diniy e'tiqod va ibodat mezonlarini belgilaydi, balki jamiyatdagi axloqiy, huquqiy va madaniy me'yorlarning shakllanishida sababiy asos sifatida xizmat qiladi. Bu hadislar tizimi ijtimoiy me'yorlarni yaratishda uch bosqichli sabab-oqibat munosabatlarini ochib beradi: 1) Muhammad (s.a.v.)ning amaliy namunasi (sabab), 2) sahobalarning ijtimoiy qabul qilinishi (vosita), 3) ijtimoiy tizimda me'yorlarga aylanishi (oqibat). Masalan, Buxoriy rivoyat qilgan mashhur hadisda Rasululloh (s.a.v.): "Kim bizni aldasa, u bizdan emas" [29] (Al-Buxoriy, Kitob al-Buyuu') – deganlar. Bu bayon, ilk islomiy jamiyatda iqtisodiy aloqalarning halollik asosida qurilishi kerakligini ko'rsatadi. Ushbu hadisning sababiy tomoni shundaki, Rasululloh halollikni jamiyat barqarorligining asosi deb ko'rsatganlar. Oqibatda esa, aldov va firibgarlik jamiyatda rad etilgan hodisa sifatida axloqiy me'yor darajasiga ko'tarilgan. Bu me'yor o'z-o'zidan paydo bo'lmagan – u aniq sabablarga, ya'ni ijtimoiy adolatni ta'minlovchi payg'ambarona tamoyillarga tayanadi.

Shu bilan birga, hadislar sanksiyalar tizimini ham shakllantiradi. Buxoriyda rivoyat qilingan: “Qo‘shnisi shikoyat qilgan kishiga Alloh rahmat qilmaydi” [29](Al-Buxoriy, Kitob al-Adab) degan hadis jamiyatda ijtimoiy mas’uliyat va muomala madaniyatiga oid qat’iy mezonni belgilaydi. Sabab – musulmonlarning o‘zaro hurmatda yashashga undalganidir; oqibat – qo‘shniga yomon munosabat ijtimoiy nuqson, hatto ma’naviy jazoga sabab bo‘ladigan holat deb qaraladi. Bu yerda sanksiya diniy motivatsiyaga asoslanadi, lekin u jamiyatning ijtimoiy muvozanatini saqlashga xizmat qiladi. Hadislarning ko‘pchiligi ichki va tashqi sanksiyalarni uyg‘unlashtirgan: bir tomondan, ma’naviy jazodan qo‘rquv sababli inson o‘zini tartibga soladi (ichki sanksiya), boshqa tomondan, jamiyatdagi ijtimoiy norozilik va rad etish esa tashqi sanksiya sifatida amal qiladi. Shunday qilib, “Al-jome’ as-sahih” faqat shariat hukmlarini emas, balki ularning sababiy ildizlarini va ijtimoiy oqibatlarini ham ochib beradi. Bu esa hadislarni ijtimoiy muomala me’yorlari va sanksiyalar tizimini shakllantiruvchi ilmiy asosga aylantiradi.

Mazkur dissertatsiyada hadislar ijtimoiy me’yor va sanksiyalarni shakllantiruvchi asosiy mezon sifatida o‘rganiladi va bu jarayon sabab–oqibat metodologiyasi asosida tahlil qilinadi. Ya’ni, har bir hadisning tarixiy sababi (asbāb al-vurūd), uning jamiyatga ta’siri (oqibat) va bu asosda shakllangan ijtimoiy me’yorlar o‘rganiladi. Sabab-oqibat (kauzal) metodologiyasi ijtimoiy fanlarda hodisalar orasidagi sababiy bog‘liqlikni aniqlashga xizmat qiladi. Bu yondashuvga ko‘ra, har qanday ijtimoiy me’yor yoki sanksiya o‘ziga xos tarixiy, madaniy va normativ sababga ega. Misol uchun, Emile Durkheim ijtimoiy me’yorlarni kollektiv ong mahsuli sifatida tahlil qilgan bo‘lsa, islomiy manbalar bu me’yorlarni ilohiy vahiy va payg‘ambarona amaliyot orqali hosil bo‘luvchi ijtimoiy tizim sifatida qaraydi.

Hadislar esa, aynan ushbu sabab-oqibat zanjirining markazida turadi: ular bir tomondan voqealarga sabab bo‘lgan holatlarni aks ettirsa (sabab), boshqa tomondan, ushbu holatlar asosida ijtimoiy va axloqiy tartibotning shakllanishiga olib kelgan (oqibat). Shu boisdan ham hadislarni tahlil qilishda ularning zamonaviy ijtimoiy tizimlarga ko‘rsatgan ta’sirini tushunish uchun ushbu metod muhim ahamiyat kasb etadi. Imom al-Buxoriy rivoyat qilgan hadislarning ko‘pchiligi Rasululloh (s.a.v.)ning kundalik hayotdagi amaliyotlariga asoslanadi. Misol uchun: “Sizlardan biringiz o‘zi uchun yaxshi ko‘rgan narsani birodari uchun ham yaxshi ko‘rmaguncha, chin mo‘min bo‘lolmaydi” [29] (Al-Buxoriy, Kitob al-Imon). Bu hadisda sabab shaxsiy yuksak axloqiy pozitsiyani jamoaviy axloq me’yoriga aylantirish zarurati bo‘lib xizmat qiladi. Oqibatda, musulmon jamiyatlarda altruizm, empatiya va jamoaviy manfaatlarni ustuvor qo‘yish ijtimoiy me’yor sifatida qaraladi. Bu esa ijtimoiy birdamlikni mustahkamlovchi faktor sifatida ishlaydi.

“Ikki musulmon qurol bilan bir-biriga qarshi chiqsa, ularning qatli ham, o‘ldirgani ham do‘zaxda bo‘ladi” [29] (Al-Buxoriy, Kitob al-Fitan). Bu hadis ijtimoiy tartibsizlik holatlarida tinchlikni saqlashni ustuvor me’yor sifatida belgilaydi. Sabab – ichki ixtiloflarning halokatli oqibatlaridir; oqibat – mo‘minlar orasida har qanday zo‘ravonlikning mutlaq rad etilishi. Ushbu me’yor zamonaviy tinchlikparvarlik tamoyillariga mos keladi va sanksion kuchga ega bo‘lgan diniy ta’limot sifatida amal qiladi.

Hadislarda berilgan ko‘rsatmalar ko‘pincha insonni o‘zini o‘zi nazorat qilishga undaydi. Misol: “Alloh ko‘rmaydigan joyda ham undan qo‘rqan kishilarni yaxshi ko‘radi” [29] (Al-Buxoriy, Kitob at-Tavhid). Bu yerdagi sabab – Allohning har jabhada nazorat qiluvchi Zot ekanligi; oqibat – ma’naviy sanksiyalar tizimi orqali shaxsiy axloqni mustahkamlash. Bu ichki nazorat tizimi, zamonaviy ijtimoiy nazariya tilida aytganda, ichkilashtirilgan me’yor sifatida amal qiladi.

Jamiyat tomonidan rad etish, ajratish yoki kinoya bilan muomala qilish kabi sanksiyalar ham hadislarda bayon qilingan: “Munafig‘ belgisi uchta: gapirsa yolg‘on gapiradi, va’da bersa ustidan chiqmaydi, omonatga xiyonat qiladi” [29] (Al-Buxoriy, Kitob al-Imon). Bu hadis asosida munafig‘lik xatti-harakatlari jamiyatda doimiy tarzda kamsitiladi va bu tashqi sanksiya shaklida ishlaydi. Odamlar yolg‘onchidan chetlashadi, ishonchsiz shaxs bilan hamkorlik qilmaydi – bu esa me’orning mustahkamlanishiga olib keladi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Imom al-Buxoriy hadislar to‘plami nafaqat diniy asos, balki chuqur ijtimoiy tuzilmaning tayanchidir. Har bir hadis sabab-oqibat zanjiri orqali muayyan ijtimoiy me’orni shakllantiradi yoki sanksiyani asoslaydi. Ushbu yondashuv orqali biz hadislarni

zamonaviy sotsiologik tahlil doirasida o'rganishimiz, ulardan axloqiy va ijtimoiy islohotlarda foydalanishimiz mumkin. Hadislar, bu ma'noda, ijtimoiy muvozanatni saqlovchi va normativ tartibni belgilovchi ilmiy mezon sifatida ko'rilishi kerak. Sabab-oqibat metodologiyasi esa bu hadislarni yuzaki emas, balki kontekstual, tarixiy va normativ jihatdan tahlil qilishga imkon beradi.

### XULOSA

Hadislar jamiyat hayotini tartibga soluvchi asosiy normativ tizimlardan biri bo'lib, ular axloqiy me'yorlarni mustahkamlaydi, birdamlik va hamkorlikni ta'minlaydi hamda mojarolarni tinch yo'l bilan hal etishga chorlaydi. Tadqiqot natijalari hadisli merosning zamonaviy sotsiologik nazariyalar bilan uyg'un talqin qilinishi jamiyat barqarorligi, adolatli boshqaruv va ijtimoiy siyosatni shakllantirishda muhim ilmiy hamda amaliy manba bo'lishini ko'rsatdi. Shuning uchun hadislarni sotsiologik tahlil qilish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ular ta'lim, tarbiya va ijtimoiy siyosatda keng qo'llanishi zarur.

### Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Гофман А. Социальные нормы и отклоняющееся поведение. – М.: Юрайт, 2019. – 232 с.
2. Тард Г. Законы подражания. – СПб.: Питер, 2017. – 304 с.
3. Sumner W.G. Folkways: A Study of the Sociological Importance of Usages, Manners, Customs, Mores, and Morals. Boston: Ginn & Co., 1906. 300 p.
4. Малиновский Б. Научная теория культуры. – М.: Республика, 2002. – 272 с.
5. Parsons T. The Social System. – London: Routledge, 1991. – 576 p.
6. Putnam R. D. Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community. – New York: Simon & Schuster, 2000. – 541 p.
7. Gouldner A.W. The norm of reciprocity: A preliminary statement // American Sociological Review. – 1960. – Vol. 25, No. 2. – S. 161–178.
8. Эллиот А. Современная социальная теория. – М.: Логос, 2010. – 448 с.
9. Coleman J. S. Foundations of Social Theory. – Cambridge: Harvard University Press, 1990. – 993 p.
10. Asch S. E. Opinions and Social Pressure // Scientific American. – 1955. – Vol. 193. – P. 31–35.
11. Silver H. Social Exclusion and Social Solidarity: Three Paradigms // International Labour Review. – 1994. – Vol. 133, No. 5–6. – S. 531–578.
12. Goffman E. Stigma: Notes on the Management of Spoiled Identity. – Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1963. – 147 p.
13. Lorber J. Paradoxes of Gender. – Yale University Press, 1994. – 318 p.
14. Parsons T. The School Class as a Social System // Harvard Educational Review. – 1959. – Vol. 29(4). – P. 297–318.
15. Бурдьё П. Формы капитала // Экономическая социология. – 2002. – Т. 3, № 5. – С. 60–74.
16. Putnam R. D. Making Democracy Work: Civic Traditions in Modern Italy. – Princeton: Princeton University Press, 1993. – 280 p.
17. Fukuyama F. Trust: The Social Virtues and the Creation of Prosperity. – New York: Free Press, 1995. – 457 p.
18. Portes A. Social Capital: Its Origins and Applications in Modern Sociology // Annual Review of Sociology. – 1998. – Vol. 24. – P. 1–24.
19. Sen A. Social Exclusion: Concept, Application, and Scrutiny. – Manila: Asian Development Bank, 2000. – 62 b.
20. Bourdieu P. The Forms of Capital // Richardson J. (ed.) Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education. – New York: Greenwood, 1986. – P. 241–258.
21. Woolcock M., Narayan D. Social Capital: Implications for Development Theory, Research, and Policy // World Bank Research Observer. – 2000. – Vol. 15(2). – P. 225–249.

22. Гофман Э. Поведение в общественных местах. – М.: Канон+, 2010. – 416 с.
23. Cialdini R. Influence: Science and Practice. – Boston: Pearson Education, 2009. – 272 p.
24. Eisenberg N., Fabes R.A. Prosocial Development // Handbook of Child Psychology / Ed. by W. Damon, R.M. Lerner. – 6th ed. – Vol. 3. – New York: Wiley, 2006. – S. 646-718.
25. Batson C. D. The Altruism Question: Toward a Social-Psychological Answer. – Hillsdale: Erlbaum, 1991. – 191 p.
26. Merton R. K. Social Theory and Social Structure. – New York: Free Press, 1968. – 702 p.
27. Hofstede G. Culture's Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions and Organizations Across Nations. – Thousand Oaks: Sage, 2001. – 596 p.
28. Ostrom E. Governing the Commons: The Evolution of Institutions for Collective Action. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 280 p.
29. Al-Buxoriy M. ibn Ismoil. Al-Jome' as-sahih / tarjima va izohlar: H. Yo'ldosh. – 8-jild. – Toshkent: Hilol-nashr, 2012. – 14-b. Al-Buxoriy M. ibn Ismoil. Al-Jome' as-sahih / tarjima va izohlar: H. Yo'ldosh. – 3-jild. – Toshkent: Hilol-nashr, 2011. – 78-b. Al-Buxoriy M. ibn Ismoil. Al-jome' as-sahih / tarj. va izoh: H. Yo'ldosh. – 4-jild. – Toshkent: Hilol-nashr, 2011. – B. 185. (Kitob al-Buyuu', bob: Aldash haqida). Al-Buxoriy M. ibn Ismoil. Al-jome' as-sahih / tarj. va izoh: H. Yo'ldosh. – 8-jild. – Toshkent: Hilol-nashr, 2013. – B. 142. (Kitob al-Adab, bob: Qo'shnilar haqidagi hadislar). Al-Buxoriy M. ibn Ismoil. Al-Jome' as-Sahih / tarj. va izoh: H. Yo'ldosh. – 1-jild. – Toshkent: Hilol-nashr, 2010. – B. 120. (Kitob al-Imon). Al-Buxoriy M. ibn Ismoil. Al-Jome' as-Sahih / tarj. va izoh: H. Yo'ldosh. – 2-jild. – Toshkent: Hilol-nashr, 2011. – B. 250. (Kitob al-Fitan). Al-Buxoriy M. ibn Ismoil. Al-Jome' as-Sahih / tarj. va izoh: H. Yo'ldosh. – 3-jild. – Toshkent: Hilol-nashr, 2012. – B. 90. (Kitob at-Tavhid).
30. Muslim ibn al-Hajjaj. Sahih Muslim / tarjima: H. Yo'ldosh. – 5-jild. – Toshkent: Hilol-nashr, 2013. – 132b.
31. Abu Dovud S. ibn al-Ash'as. Sunan Abu Dovud / tarjima: H. Yo'ldosh. – 2-jild. – Toshkent: Hilol-nashr, 2012. – 255b.
32. At-Termiziy M. ibn Iso. Al-Jome' as-sahih / tarjima: H. Yo'ldosh. – 1-jild. – Toshkent: Hilol-nashr, 2010. – 45b.

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000